

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

SPORT HUQUQI, IJTIMOIIY VA TABIIY-ILMIY FANLAR KAFEDRASI



TURDIMURATOV YANGIBOY ALLAMURATOVICH

**MUSTAQILLIK YILLARIDA
O‘ZBEKISTONDA
JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

USLUBIY QO‘LLANMA

Uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 27-iyundagi 4-son yig‘lishi qarori bilan nashr etishga ruxsat etilgan.

Chirchiq – 2023

Taqrizchilar:

Jumayev U.X . – O'zDJTSU “Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrası dotsenti, t.f.n.

Artikbayev O.S . – JTSBMQTMOI “Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri, dotsent.

Uslubiy qo'llanmada mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, mazkur islohotlarning huquqiy asoslari, ommaviy va milliy sport turlari, bolalar va xotin-qizlar sportining rivojlanishi, yuqori natijalar sporti bo'yicha xalqaro sport musobaqalarida erishilgan yutuqlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, unda mavzu bo'yicha glossariy, muhim voqealar xronologiyasi, jadval va diagrammalar ko'rinishidagi asosiy ma'lumotlar aks ettirilgan ilovalar ham berilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta'lim sohalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi tomonidan tasdiqlangan “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

MUNDARIJA

Kirish	4
1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy asoslarning yaratilishi	5
2. Ommaviy sport tadbirlari va milliy sport turlarining rivojlanishi	9
3. O‘zbekiston sportchilarining xalqaro sport musobaqalarida erishgan yutuqlari	18
Xulosa	26
Glossariy	27
Mavzuga oid muhim voqealar xronologiyasi	30
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati	33
Ilovalar	34

KIRISH

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o‘rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan”.

Respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida uch bosqichdan iborat “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o‘yinlari ommalashib borayotgani, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi aholi sonining yildan yilga oshib borayotganligi, ayniqsa, e’tiborlidir. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va istedodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy asoslarning yaratilishi

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi suverenitetining birinchi yillaridan jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga milliy taraqqiyotga yordam beruvchi muhim omil sifatida katta e‘tibor qaratildi. Aynan shu maqsadlarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi o‘zgarishlar jamiyatimizning yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy sharoitlariga moslashtirildi. O‘zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir, deb to‘la ishonch bilan aytishimiz mumkin. Bugun O‘zbekistonda sport ta‘lim va tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston aholisi yosh bo‘lgan davlat bo‘lib, respublika hududida istiqomat qiluvchilarning qariyb 40 qoizidan ko‘prog‘ini 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning har tomonlama rivojlanib, ham ma‘nan, ham jismonan kamolotga erishishlari muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish, jismoniy madaniyat harakatini, bolalar sportini rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida qabul qilingan President farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizda ushbu sohani ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sport, xususan, bolalar sportini rivojlantirish uchun o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirish borasida muayyan ko‘rinishdagi huquqiy baza shakllantirildi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan jami **352 ta** sport-ta‘lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, **2022-yilning 1-yanvar** holatiga ularning soni **367 taga** yetgan. Shundan shahar joylarda – 324 ta, qishloq joylarda – 43 ta. Ayni paytda respublikamizda 254 ta bolalar sport maktablari, 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktablari, 15 ta olimpiya zahirolari kollejlari, 12 ta oliy sport mahorati maktablari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari bunyod etildi.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda jami **6907,8 ming** kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi aniqlandi.

Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ruyobga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko'ra, davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning ikkinchi tahriri **2000-yil 26-mayda** tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri **2015-yil 4-sentyabrda** qabul qilindi. Mazkur Qonunda O'zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy me'yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi. Mazkur qonun 8 bob va 47 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqini ta'minlash; jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish; fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash; jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik; jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash; sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish; nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish; O'zbekistonning milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash; xalqaro hamkorlikni amalga oshirish shular jumlasidandir.

1999-yil 27-mayda qabul qilingan Vazirlar Mahkasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida *O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepsiyasi* tasdiqlandi. Dasturda jismoniy tarbiya va sportga millatning umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning har bir

fuqarosining jismoniy va axloqiy kamolotga yetishini, kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishni ta'minlashning asosi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ijrosi bilan bog'liq mamlakat aholisining barcha qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga ega bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik, vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, umuman, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli hol, albatta. Jumladan, **2017-yil 3-iyunda** "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori, **2018-yil 5-martda** "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonining qabul qilinishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining **2019-yil 29-yanvardagi** "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholini jismoniy va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi, **2019-yil 13-fevraldagi** "2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarining qabul qilinishi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida *O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi* va dasturning bajarilishini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Ushbu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad respublika hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirishdan iborat.

2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab jismoniy tarbiyaning innovatsion usullari takomillashtirilmoqda. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga talabalarni tanlashda ularning trenerlik kasbida ishlash ishtiyoqiga e'tibor berilmoqda. Jismoniy tarbiya sohasidagi kadrlar Sport Management (sportni boshqarish), Sport Leadership (sportga rahbarlik qilish), Sport Administration (sport ma'muriyatchiligi) yo'nalishlari bo'yicha tajriba orttirmoqdi.

Respublika barcha hududlarida “Sport bayrami” milliy festivali o‘tkazilayapdi. Shuningdek, prezident qarori bilan Konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida, “Jismoniy tarbiya va sport” ixtisoslashtirilgan nashriyot markazi tashkil etildi.

2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida *O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi* va uning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Farmonga ko‘ra, quyidagilar jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug‘ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

- joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to‘rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

- O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi (hozirda Yoshlar siyosati va sport vazirligi) tizimidagi sport maktablari o‘quvchi-sportchilari o‘rtasida “Bolalar sport o‘yinlari”ni o‘tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Talabalar sport o‘yinlari”ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish;

- sport turlari bo‘yicha 18 yoshgacha bo‘lgan hududiy terma jamoa a‘zolarini hududiy bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarining o‘smirlar bo‘limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a‘zolarini tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib borish mexanizmini joriy etish;

- huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tizimidagi ta’lim muassasalari, jumladan “Temurbeklar maktabi” o‘quvchi-talabalari uchun “Armiya o‘yinlari” dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlar va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Taraqqiyot strategiyasining **67-maqsadi** jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirishga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra, respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, barpo etiladigan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo‘laklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish, milliy olimpiada sport o‘yinlarini o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash uchun **2022-yil 11-aprelda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Qarorga ko‘ra, 2022-yildan boshlab har yili an‘anaviy tarzda 30-iyun – O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o‘tkaziladigan “Yoshlar forumi” doirasida sportning 9 ta turi – futbol, minifutbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo‘yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy etildi. 2022-yil yakuniga qadar 6 million nafar yoshlarning sport tadbirlari bilan qamrab olinishini ta‘minlash belgilab qo‘yildi. Shuningdek, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlar muvofiqlashtiriladi.

2. Ommaviy sport tadbirlari va milliy sport turlarining rivojlanishi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari ancha rivojlandi. Ommaviylik asosida sport mahoratlari oshirish ancha o‘sdi. Futbol, tennis, o‘zbek kurashi, boks, sharqona yakka kurash sport turlari (karate, dzyu-do, taekvando, ushu, qo‘l to‘pi va h.k.) yoshlar orasida tobora ommalashmoqda. Buning eng asosiy sabablari shundaki, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun, qator qarorlarni amalga oshirishda katta sport tadbirlari o‘tkazildi. Ularning natijalari esa respublikada o‘tkazilgan sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va sportchilarning Osiyo va jahon birinchiliklarida ishtirok etishi, erishilgan yutuqlar mazmunida namoyon bo‘lmoqda. Respublikada futbolni rivojlantirish, tennis, boks va kurash bo‘yicha xalqaro turnirlar o‘tkazish haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir.

1991-2023-yillar davomida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini to‘rtta asosiy yo‘nalishlarda kuzatish mumkin: ommaviy sport, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti, yuqori natijalar sporti.

Ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan musobaqalar orqali barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilinmoqda. Har yili yoshlar, ishchi va xizmatchilar, madaniyat, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o‘rtasida basketbol va voleybol bo‘yicha “Kamolot kubogi”, milliy o‘yinlar bo‘yicha “Alpomish” sport musobaqalari, yoshlarning “Shunqorlar” harbiy sport musobaqalari, ayollarning “To‘maris” sport festivali, “Jasorat-iroda-g‘alaba” nogironlar sport musobaqalari, o‘quvchi va talabalarning “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” uzluksiz sport musobaqalari muntazam o‘tkazilmoqda.

Besh tashabbus hamda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida sport ob‘yektlari ishga tushirilib, yoshlar sportga faol jalb etilmoqda. Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g‘olibi bo‘lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga biriktirildi, ayrimlarining sport maktablari ochildi. Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarini o‘tkazish tizimi joriy etildi.

O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish va ularning salomatligini mustahkamlash maqsadida **1999-yilda** maxsus test sinovlari ishlab chiqildi. Mazkur testlarni muvaffaqiyatli topshirganlar uchun 3 darajali "Alpomish" va "Barchinoy" nishonlari ta’sis etildi. 2002-yilda 1.588.298 nafar o‘quvchi mazkur testlarni muvaffaqiyatli topshirdi. Shuningdek, maktab o‘quvchilari uchun "Umid nihollari", litsey-kollej o‘quvchilari uchun "Barkamol avlod", oliy o‘quv yurti talabalari uchun "Universiada" ommaviy musobaqalarini har 2 yilda o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Xalq o‘yinlari va ommaviy sport turlari bo‘yicha qar 2 yilda "Alpomish o‘yinlari" festivali hamda "To‘maris o‘yinlari" o‘tkazib kelinadi.

Respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish, 2000-yildan boshlab oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida Universiada, kasb-hunar kollejlari va litsey o‘quvchilari o‘rtasida “Barkamol avlod”, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Umid nihollari” musobaqalarining o‘tkazilishi mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Uch bosqichli sport musobaqalarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, mamlakatimiz terma jamoasi tarkibida xalqaro musobaqalarda ishtirok etishga munosib nomzodlarni tayyorlashdan iborat edi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yildagi farmoniga muvofiq Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilgani bolalar sportini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mazkur jamg‘armaning asosiy

maqsadi bolalarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni yoshligidanoq sportga jalb etish, ularda sportga qiziqish va mehrini uyg'otish, navqiron avlodni jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol shaxs etib tarbiyalashdan iborat.

Bolalar sporti ob'yektlarini barpo etish, joylashtirish va ularning faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, bolalar-o'smirlar sport maktablaridan foydalanish darajasini va ular faoliyati samaradorligini yanada oshirishga doir takliflarni ishlab chiqish, ularni boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish, istiqbolli rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishga jalb etishni kengaytirish maqsadida **2015-yil 11-dekabrda** O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan "Bolalar-o'smirlar sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 356-sonli qaror imzolandi.

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida yoshlarning uch bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda Respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi. 2002-yilda Farg'ona viloyatida o'tkazilgan "Umid nihollari" sport musobaqalarida 11 ta sport turi kiritilgan bo'lsa, 2015-yilda Xorazmdagi "Umid nihollari" musobaqalari 17 ta sport turi bo'yicha o'tkazildi.

Nufuzli xalqaro institutlarning e'tirof etishicha, O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Jahon reytingida mamlakatimiz ona va bola salomatligiga eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan 10 ta davlat safidan joy oldi. Aholi genofondini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ayollarning o'rtacha umri 66 yoshdan 73,5 yoshga uzaydi. Onalar va go'daklar o'limi 3 barobar kamaydi.

Yurtimizda ayollarga xos sport turlarini rivojlantirish, sport bilan shug'ullanishni aholining kundalik turmush tarziga aylantirish va shu orqali ayollar salomatligini asrash, ayolda o'z sog'ligiga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytirish, sog'lom avlod tug'ilishini ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "Xotin-qizlar sportini rivojlantirish yo'nalishi" tashkil etilib, yuqori malakali ayol trenerlar va jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan. Umumta'lim maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablarida ayol jismoniy tarbiya o'qituvchilari va ayol murabbiylar soni yildan yilga oshib bormoqda. **1999-yilda** ayol murabbiylar soni **2845** nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich **2012-2013-yillar** davomida **15426** nafarni tashkil etgan.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan xotin-qizlar sportini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilib, ayniqsa, sportning badiiy gimnastika va sinxron suzish turlari rivojlantirilmoqda.

Buni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar sonining muntazam ortib borayotganligi ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida sport maktablari va turli jamoalarda mahalliy millat qizlarining qiziqib, faollik bilan shug'ullanishlari ko'paydi. Masalan, **1996-yilda** 1180 xotin-qizlar sport bilan shug'ullangan bo'lsa, **2016-yilga** kelib ularning soni 3 milliondan ortdi. Respublika hududlarida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan 2005-yildan boshlab "Gimnastika barcha uchun" sport festivali, "Otam, onam va men sportchi oila", "Sog'lom ayol – sog'lom jamiyat" shiori ostida sport musobaqalari tashkil etilib, ularda har yili 500 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etmoqda.

Mustaqillik yillarida sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. Sport aholini, xususan yoshlarni jismoniy va axloqiy tarbiyalashning, xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir. **1992-yil yanvarda** O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va **1993-yil sentabrda** Xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasmiy tan olindi. **1996-yil 1-sentyabrda** Toshkent shahrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi.

Sportning ommaviy o'yin turi – futbolni yanada rivojlantirish maqsadida barcha viloyatlar va shahar markazlaridagi stadionlar qayta ta'mirlandi, futbol maydonlari rekonstruksiya qilindi, futbol maktab-internatlari tashkil etildi, futbolning professional klublar tizimiga o'tkazilishining asosiy tamoyillari belgilandi. Mazkur ishlar sport bilan shug'ullanuvchilar sonining ortib borishiga zamin yaratmoqda. Masalan, 2008-yilda futbol bilan shug'ullanuvchilarning soni 1991-yildagiga nisbatan 80,6 foiz, kurash bilan shug'ullanuvchilar esa 89,8 foizga ko'paygan. 1991-yilda yurtimizda 52 sport turi mavjud bo'lsa, 2016-yilda 74 ta sport turidan 65 dan ortig'i barcha hududlarda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida sportning eng ommaviy turi – futbolga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida **1993-yilda** "O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, **1996-yilda** "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, **2006-yilda** "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va **2023-yil 7-aprelda** "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari

muhim ahamiyatga ega bo'ldi. **2017-yil 23-aprel** kuni O'zbekiston tarixida birinchi marta maxsus ixtisoslashtirilgan futbol telekanali – “Futbol TV” ishga tushirildi. Kanalda birinchi bo'lib Ispaniya chempionatining 33-turi – “Real”-“Barselona” uchrashuvi namoyish qilingan.

Dunyoga O'zbekiston sportchilarining salohiyati va qudratini namoyon etayotgan o'zbek hakami Ravshan Ermatov O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami, 2003-yildan FIFA hakami statusini olgan. 2008, 2009, 2010, 2011 va 2014-yillarda besh marotaba Osiyoning eng yaxshi hakami deb e'tirof etildi. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi uni **2011-yilda** “Dunyoning eng yaxshi hakami” sifatida tan oldi. U o'z faoliyati davomida futbol bo'yicha jahon chempionatlari final bosqichida eng ko'p – 9 uchrashuvni boshqarib (2014-yilga qadar), dunyo rekordini o'rnatdi. Ravshan Ermatov Prezident farmonlariga muvofiq 2010-yili “O'zbekiston iftixori” faxriy unvoni, 2014-yilda “El-yurt hurmati” ordeni, shuningdek, 2015-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni hamda “Malibu” avtomobili bilan mukofotlandi.

Shuningdek, sportning o'yin turlari qatorida katta tennis mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy ravishda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakat aholisi o'rtasida tennisni targ'ib etish, shug'ullanuvchilarga tegishli sharoitlar yaratish maqsadida **1998-yilda** Vazirlar Mahkamasining “O'zbekistonda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq bir necha yilda jahon andozalari talablariga javob beradigan tennis kortlari bunyod etildi, ular negizida turli darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkazilmoqda. Barcha hududlarda zamonaviy tennis kortlari barpo etildi. **1994-2002-yillarda** Yunusobod tennis saroyida O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha xalqaro turnirda toshkentlik sportchi Iroda To'laganova Uimblon turnirida g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi.

Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga yetkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **2003-yilda 4-noyabrdagi** “Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 484-sonli qarori qabul qilinib, unga binoan O'zbekiston televideniyesida maxsus “**Sport**” telekanali tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi; jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va milliy sport turlari rivojlantirildi; jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi; jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta

tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. Jismoniy tarbiya va sport sohasi boshqaruv tizimidagi islohotlar tufayli ushbu sohadagi maxsus vakolatli davlat organi bir necha bor o'zgartirildi. Jumladan, 1992-2004-yillarda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, 2004-2017-yillarda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, 2017-2018-yillarda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, 2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, 2021-2022-yillarda Turizm va sport vazirligi, 2022-yilda Sportni rivojlantirish vazirligi ushbu soha faoliyatini boshqargan. **2022-yil 21-dekabrda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, bir qancha vazirliklar, jumladan, *O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi* qaytadan tashkil etildi.

Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini tiklash, ularni ommalashtirish va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 1994-yilda birinchi marta Jizzah viloyatining Forish tumanida I Xalq o'yinlari festivali o'tkazildi. O'sha davrdan boshlab muntazam ravishda, har ikki yilda bir marta (1998-yildan "Alpomish" milliy sport turlari va o'yinlari festivali nomi bilan) o'tkazilmoqda. Festivallarda Xalq o'yinlari bo'yicha musobaqalar bilan bir qatorda ilmiy-amaliy anjumanlar ham o'tkaziladi. **1999-yildan** esa xotin-qizlar o'rtasida "To'maris" milliy sport turlari va Xalq o'yinlari festivali ham o'tkazila boshlandi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy sport turlarining qayta tiklanishiga va ularning sport turi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga imkoniyatlar yaratildi. **1992-yildayoq** Termiz va Shahrisabz shaharlarida milliy kurash bo'yicha ilk xalqaro musobaqa o'tkazildi. 1992-yilda O'zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001-yilda belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi. O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni bilan **1998-yili sentabr** oyida Toshkentda Osiyo, Afrika va Yevropa qit'asidan kelgan 28 davlat vakillari ishtirokida Xalqaro kurash Assotsiatsiyasi tuzildi. Uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. **2002-yil oktabrda** Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zolicigiga qabul qilindi.

O'zbek kurashi jahonga yuz tutishi bilan yanada baynalmilal xususiyat kasb etdi. 2016-yilga kelib, Xalqaro kurash Assotsiatsiyasining jahonning barcha qit'alarida 120 dan ortiq kurash federatsiyalari tashkil etildi. Milliy sport turimizning xalqaro maydonda keng tan olinishi ham mamlakatimiz xalqaro aloqalarining yanada kengayishiga sabab bo'lmoqda. **2017-yilda** o'zbek kurashining 2018-yili Indoneziyada bo'lib o'tgan XVIII Osiyo o'yinlari dasturiga rasman kiritilganligi ma'lum qilindi. Bu haqda Turkmanistonning Ashxobod shahrida o'tayotgan Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha V Osiyo

o'yinlari doirasida bo'lib o'tgan Osiyo Olimpiya kengashi Bosh assambleyasida e'lon qilindi.

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov sovrini uchun Shahrisabzda Amir Temur, Termiz shahrida Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab xalqaro turnirlar tashkil etildi. 1992-1998 yillarda Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, Amerika, Rossiya kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan yirik sport anjumanlarida o'zbek kurashi keng namoyish qilindi. Jahon hamjamiyati **1998-yil 6-sentyabr** kuni o'zbek kurashini xalqaro sport turi sifatida rasman e'tirof etdi.

Milliy kurashimizning nazariy jihatlarini va qoidalarini ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. **1999-yil may** oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. **2000-yilda** esa Turkiyaning Anqara shahrida kurash bo'yicha 2-jahon chempionati bo'lib o'tdi. 2000-2002-yillarda Bedford shahrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir o'tkazildi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e'tirof etildi.

2023-yilning avgust oyida kurash Kongo Demokratik Respublikasining Brazzavil shahrida o'tadigan Afrika o'yinlari tizimidan alohida sport turi sifatida rasman joy oldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi bosh kotibi va texnik direktori Muhammad Rizo Nosiriy mazkur o'yinlar bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish maqsadida Kongoga xizmat safari uyushtirdi. Tashrif davomida Kongo Yoshlar va sport, fuqarolik ta'limi vaziri Xuguyes Ngouyelondele bilan uchrashdi. Muloqotlar davomida kurashning Afrika o'yinlaridagi texnik jihatlariga oid masalalar muhokama qilindi. Kurash musobaqalari uchun zarur bo'lgan vositalar, texnik talablar va takliflar bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi qaroriga ko'ra, 2022-yildan boshlab yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalari quyidagi bosqichlarda o'tkazilmoqda:

Birinchi bosqichda – ko'chalararo mahalla musobaqalari;

Ikkinchi bosqichda – mahallalararo sektor musobaqalari;

Uchinchi bosqichda – sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari;

To'rtinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari;

Beshinchi bosqichda – viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari.

Bunda, mazkur ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san'at, intellektual o'yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo'yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladi.

Bundan tashqari, **2023-yil 1-martdan** boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilindi:

birinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – viloyat musobaqalari;

uchinchi bosqichda – respublika (final) musobaqalari.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha sport musobaqalarini o'tkazish dasturining ishlab chiqilishi, sport musobaqalari o'tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasining yaxshilanishi va zarur sport inventarlari bilan jihozlanishi, sport musobaqalarining yuqori darajada tashkil etilishi hamda g'olib va sovrindorlarning munosib rag'batlantirilishini ta'minlaydi.

Uch bosqichli sport musobaqasida yoshlar **28** sport turi bo'yicha bellashadi. Jumladan, futbol, gandbol, voleybol, mini-futbol, basketbol, stritbol, dzyudo, ushu, badminton, tennis, yengil atletika, velosport, suzish, stol tennisi, sport va badiiy gimnastika, boks, og'ir atletika, shaxmat, armrestling, karate, taekvondo, kurash, turon va belbog'li kurash, o'zbek jang san'ati, erkin va yunon-rum kurashlari turlari bo'yicha bellashuvlar bo'lib o'tadi.

Yuqorida ko'rsatilgan musobaqalar davomida g'oliblarni tayyorlagan maktablarning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to'g'ridan-to'g'ri beriladi:

- tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - ikkinchi malaka toifasi;
- viloyat bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - birinchi malaka toifasi;
- respublika (final) bosqichida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - oliy malaka toifasi.

2022-yil 25-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Unga ko'ra, Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturini 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. 2023-yil 1-martdan boshlab milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli respublika o'yinlari tashkil etiladi. Shuningdek, har yili Toshkent shahrida "Uzbekistan Ethno Games" respublika festivali bo'lib o'tadi.

Xivada esa har ikki yilda bir marotaba Xalqaro etnosport festivali tashkil qilinadi. Har bir hududda ot sporti turlariga tegishli anjomlar do‘koni ochiladi. Shuningdek, 2023-yildan boshlab, har ikki yilda bir marotaba polvonlar va dorbozlar ishtirokida “Polvonlar sulolasi” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.

2022-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab quyidagi dasturlar joriy qilinadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Gimnastikaga ilk qadam”;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Bolalar uchun gimnastika”.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallarida gimnastika bo‘yicha amaldagi o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini ikki baravarga oshirish choralari ko‘rish vazifasi topshirildi. Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi: 1) 2023-2025 yillarda gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”; 2) 2023-2025 yillarda gimnastika sport turlarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida, shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. O‘tgan davr mobaynida respublikamizda juda ko‘plab sport inshootlari – sport-sog‘lomlashtirish klublari, bolalar, o‘smirlar sport maktablari, olimpiya zahiralari kollejlari, oliy sport mahorati maktablari, o‘yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta’mirlandi. Ularda barcha aholi vakillari jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

2012-yilda Toshkentda dunyo standartlariga to‘liq javob bera oladigan “Bunyodkor” stadioni foydalanishga topshirildi. Osiyoda eng chiroyli va ko‘rkam stadionlardan biri hisoblanadigan ushbu inshoot o‘z bag‘riga 35 000 dan ortiq muxlisni o‘z bag‘riga sig‘dira oladi. **2019-yil 15-mart** kuni Toshkentda yangi qad rostlagan “Humo Arena” muz saroyining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tantanali tadbirda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so‘zladi. O‘sha yilning noyabr oyida Samarqand shahrida ilk marotaba yarim marafon bo‘lib o‘tkazildi, dekabr oyida esa Toshkent viloyati qorli yonbag‘irlarida ham mahalliy aholi, ham sayyohlar chang‘ida uchishlari mumkin bo‘lgan jahon darajasidagi *Amirsoy tog‘-chang‘i* kurorti ochildi.

3. O‘zbekiston sportchilarining xalqaro sport musobaqalarida erishgan yutuqlari

Mamlakatimiz sportchilari nufuzli xalqaro sport musobaqalarida ham faol ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishmoqda. 2015-yilda O‘zbekiston sportchilari jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro turnirlarda 860 dan ortiq medalni qo‘lga kiritishga erishdilar. Shuning 311 tasi oltin, 274 tasi kumush, 276 tasi bronza medallaridir. Sportchilarimiz, ayniqsa, yengil atletika, badiiy gimnastika, boks, kurash, dzyudo, taekvando, shaxmat, ot sporti bo‘yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.

1996-yilning 12-aprel sanasida o‘zbekistonlik bokschi *Artur Grigoryan* Germaniyaning Gamburg shahrida WBO kamari uchun venesuelalik Antonio Riveraga qarshi ringga ko‘tarildi. Bu uning professional boksdagi o‘n to‘qqizinchi yangi edi. Shiddatli va qiziqarli kechgan jang to‘liq o‘n ikki raund davom etdi va hakamlar bir ovozdan Grigoryanning g‘alabasini e‘lon qilishdi. Shu tariqa qahramonimiz WBO chempionlik kamarini qo‘lga kiritadi. Bu g‘alaba nafaqat Grigoryanning g‘alabasi edi, balki butun O‘zbekistonning ham yutug‘i edi. Artur shu tariqa O‘zbekiston tarixida professional boksdagi birinchi oltin kamarni qo‘lga kiritgan bokschi sifatida tarixga kirdi.

1999-yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o‘tkazilgan X Jahon chempionatida O‘zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o‘rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinchi o‘rinni egalladi. Bokschilarimiz M.Abdullayev va O‘.Haydarovlar oltin, T.Turg‘unov kumush medali sohibi bo‘lishdi. O‘zbek bokschisi Ruslan Chagayev **2007-yil 14-aprel** kuni Germaniyaning Shtutgart shahrida professional boksnig WBA yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempioni N. Valuyev bilan bo‘lgan bellashuvda g‘alaba qozonib, o‘ta og‘ir vazn toifasi bo‘yicha jahon chempioni unvonini qo‘lga kiritdi.

2021-yil aprel oyida Polshaning Kelse shahrida boks bo‘yicha yoshlar o‘rtasida jahon chempionatining qizlar orasidagi final janglarida O‘zbekistondan ikki vakil ishtirok etdi. -54 kg vazn toifasida janglarda ishtirok etgan samarqandlik *Nigina O‘ktamova* ukrainalik Kristina Lakichukka qarshi ringga chiqdi va 4:1 hisobida g‘alaba qozondi. Nigina O‘ktamova o‘zbek bokschi qizlari orasida jahon chempionligini qo‘lga kiritgan ilk sportchiga aylandi. Bungacha O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi qizlari hech qachon jahon chempionati finaliga qadar yetib kela olishmagandi. Terma jamoamiz a‘zolari Polshadan 3 ta oltin, bitta kumush va 6 ta bronza medali bilan ortga qaytishdi.

2022-yil 5-9 aprel kunlari Rumiyaning Tirgu-Muresh shahrida boks bo‘yicha Golden Belt seriyasiga kiruvchi “Nikolaye Linka” xalqaro musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Unda ishtirok etgan O‘zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida

birinchi o'rinni egalladi. Jahonning 13 mamlakatidan sportchilar ishtirok etgan musobaqada o'zbekistonlik bokschilar 6 ta oltin, 4 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

2023-yil may oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha kattalar o'rtasidagi Jahon chempionatida O'zbekiston bokschilari umumiy hisobda 5 ta oltin, 2 ta kumush hamda 2 ta bronza medaliga ega chiqib, Jahon chempionatida umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. -51 kg vaznda jahon chempionligini qo'lga kiritgan Hasanboy Do'smatov IBA tomonidan Jahon chempionatining eng yaxshi bokschisi sifatida e'tirof etildi. Musobaqa yakunlariga ko'ra, To'liqin Qilichev murabbiyligidagi O'zbekiston jamoasi JCHning eng yaxshi jamoasi deb topildi. Ma'lumot uchun, 4 ta oltin va 1 ta kumush medalga ega chiqqan Qozog'iston jamoasi umumjamoa hisobida 2-o'rinni band etgan bo'lsa, 2 ta oltin va 4 ta bronza medali bilan Rossiya jamoasi 3-o'rin sohibiga aylandi.

O'zbekiston sport delegatsiyasi mustaqil ravishda ilk marotaba **1994-yili** Yaponiyaning Xirosima shahridagi Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan. Musobaqada 135 nafar o'zbekistonlik sportchi yurtimiz sharafini himoya qilgan. Xirosimada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida terma jamoamiz azolari 11 ta oltin, 12 ta kumush va 19 ta bronza medallariga ega chiqishgan. Umumiy hisobda 42 ta medal qo'lga kiritilgan. Jumladan, boks, o'q otish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, yengil atletika, futbol kabi 5 ta sport turi bo'yicha sportchilarimiz oltin medal sohibi bo'lishgan.

1999-yilda Germaniyada yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan karate bo'yicha xalqaro turnirda 200 mamlakatdan 900 nafar sportchilar qatnashdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston komandasi faxrli uchinchi o'rinni egalladi. **2002-yil 29-sentabr-14-oktabr** kunlari Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar sportning 24 turi bo'yicha muvaffaqiyat bilan qatnashib, 15 ta oltin, 12 ta kumush, 24 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, 40 dan ortiq mamlakatlar orasida faxrli 5-o'rinni egalladilar.

2012-yilda Malayziyada sinxron suzish bo'yicha o'tkazilgan musobaqada qizlarimiz 4 oltin, 1 kumush va 2 bronza medalini qo'lga kiritdi. Malayziyada suv polosi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro musobaqada Namangan viloyati o'g'il-qizlar jamoalari birinchi o'rinni egalladi.

2014-yilda Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan XVII yozgi Osiyo o'yinlari va II Paraosiyo o'yinlarida sportchilarimiz yurt sharafini munosib himoya qildi. "Osiyo o'yinlari-2014"da 61 nafar o'zbekistonlik sportchi sovrindorlar qatoridan joy olgan bo'lsa, Paraosiyo o'yinlarida hamyurtlarimiz 22 marta shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. O'zbekiston terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan 27 nafar sportchimiz 22 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza, jami 31 ta medalga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida 41 davlat orasida faxrli 5-

o‘rinni, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida esa faxrli 1-o‘rinni egalladi. Shu bilan birga mamlakatimiz sportchilari Parosiyo o‘yinlarida 12 marotaba Osiyo rekordini yangilashga ham muvaffaq bo‘lishdi.

2014-yil avgust oyida Xitoyning Nankin shahrida 200 dan ortiq davlatdan 3500 dan ortiq sportchi ishtirok etgan II yozgi o‘smirlar Olimpiya o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Sportchilarimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. **2018-yil 18-avgust-2-sentyabr** kunlari Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida o‘tkazilgan XVIII Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza, umumiy hisobda 70 ta oltin medal qo‘lga kiritib, medallar sifati bo‘yicha beshinchi o‘rinni egalladi.

2012-yilning oktyabr oyida futbol bo‘yicha O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi Eronda bo‘lib o‘tgan Osiyo chempionatida finalda Yaponiya terma jamoasini mag‘lub etgan holda qit‘a chempionligini qo‘lga kiritishdi. **2018-yil** Xitoyda o‘tkazilgan 23-yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida futbol bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. **2023-yil 18-mart** kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Iroq terma jamoalari o‘rtasidagi U-20 Osiyo kubogi final uchrashuvida futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi chempion bo‘ldi. Uchrashuv “Bunyodkor” stadionida bo‘lib o‘tdi.

2015-yilda esa O‘zbekistonda xokkey o‘yini tiklandi. “Binokor” jamoasi qayta tashkil qilinib, qo‘shni mamlakatlarda bo‘lib o‘tadigan xalqaro turnirlarda ishtirok etishni boshladi. Oradan bir yil o‘tib esa, mustaqil O‘zbekistonda ilk marotaba xokkey bo‘yicha xalqaro o‘yin tashkil etildi. O‘zbekiston xokkey federatsiyasi 2013-yil dekabr oyida tashkil etilgan bo‘lib, ammo keyinchalik ishlamagan. **2018-yil 28-martda** qayta tashkil etilgan. Ushbu federatsiya 2019-yil 26-sentabrdan Xalqaro shaybali xokkey federatsiyasi a‘zosi hisoblanadi. **2023-yil 11–17 mart kunlari** Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida o‘smirlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xokkey bo‘yicha muusobaqada O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi Osiyo va Okeaniya U-18 chempionati g‘olibiga aylandi.

2022-yil avgust oyida Turkiyaning Konya shahrida o‘tkazilgan V Islom birdamligi o‘yinlarida 24 ta sport turida 268 ta sportchi bilan qatnashgan O‘zbekiston delegatsiyasi 51 ta oltin, 42 ta kumush va 65 ta bronza - jami 158 ta medal bilan umumjamoa hisobida 2-o‘rinni egalladi.

2004-yilda Liviya poytaxti Tripoli shahrida bo‘lib o‘tgan shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida 56 mamlakatdan 128 nafar shaxmatchi qatnashdi. Ular orasida hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov ham bor edi. Rustam Qosimjonov barcha da‘vogarlar ustidan g‘alaba qozonib, jahon chempioni degan yuksak unvonni qo‘lga kiritdi. Bu g‘alaba butun xalqimizga cheksiz quvonch va g‘urur-iftixor bag‘ishladi. Maribor (Sloveniya) shahrida 126 davlatdan 2600 nafarga yaqin sportchi ishtirok etgan shaxmatning tezkor turi bo‘yicha jahon

championatida to'qqiz yoshli shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov g'olib bo'ldi. **2013-yilda** yosh sportchi Nafisa Mo'minova FIDE xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo'lgan birinchi o'zbekistonlik shaxmatchi ayol bo'ldi. Uning yorqin muvaffaqiyati milliy sport turlari tarixiga kirdi. **2014-yilda** to'qqiz yoshli Javohir Sindarov Braziliyada shaxmat bo'yicha jahon chempioni bo'ldi. **2021-yil dekabr** oyi oxirida Varshavada bo'lib o'tgan tezkor shaxmat (rapid) bo'yicha jahon chempionatida 17 yoshli Nodirbek Abdusattorov g'alaba qozonib, musobaqa tarixidagi eng yosh chempion bo'lgan edi.

2022-yil avgustda Hindistonning Chennay shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat Olimpiadasida O'zbekiston birorta ham mag'lubiyatga uchramagan yagona jamoa bo'lib, 188 jamoa ishtirok etgan Olimpiada chempioniga aylangandi. Natijada, ilk marta o'zbekistonlik 4 shaxmatchi FIDE reytingida TOP-100 talikdan joy olgandi. Nodirbek Abdusattorov FIDE reytingida kuchli 30 talikdan joy oldi. Rustam Qosimjonov 72-o'rinda qayd etildi. Nodirbek Yoqubboyev va Javohir Sindorov ham yuqori yuzlikka kirdi va bu reytingdagi o'zbekistonliklar soni tarixda birinchi marta 4 nafarga yetdi.

2022-yil noyabrda Quddus shahrida shaxmat bo'yicha milliy jamoalar o'rtasida FIDE jahon chempionatida O'zbekiston shaxmatchilari jahon chempionatida ikkinchi o'rinni egalladi. **2023-yil yanvarda** Niderlandiyada o'tkazilgan "Tata Steel Chess-2023" xalqaro turnirining "Masters" toifasida O'zbekiston milliy jamoasi a'zolaridan Nodirbek Abdusattorov 5-turdan buyon peshqadamlikni hech kimga bermay, so'nggi turdagi yagona mag'lubiyati sababli yakunda 2-o'rinni egallagan bo'lsa, "Challengers" tasnifida o'zbekistonlik yana bir shaxmatchi Javohir Sindorov 3-o'rinni egalladi. Niderlandiyadagi xalqaro turnir yakunida Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorov yilning eng yaxshi shaxmat mamlakatiga topshiriladigan "Tour D'or" - "Oltin minora" sovrinini qabul qilib olishdi.

2022-yilda Kolumbiyadagi yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi (U20) jahon chempionatida 15 yoshli Sharifa Davronova uch hatlab sakrash dasturida barcha raqibalarini ortda qoldirdi va jahon chempioni bo'ldi. U keyin Islom birdamliklari o'yinlari va Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. Kuvaytda o'tgan yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi 3-o'rinni egalladi. **2023-yil 11-12-fevralda** Qozog'istonning Astana shahrida yengil atletika bo'yicha yopiq inshootlarda o'tkazilgan Osiyo chempionatida terma jamoamiz 2 ta oltin, 1 tadan kumush hamda bronza medallariga sazovor bo'ldi.

2022-yil may oyida esa Gretsiyaning Iraklion shahrida og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Qizlar o'rtasida -87 kg vazn toifasida Tursunoy Jabborova dast ko'tarish va siltab ko'tarish mashqida jahon

chempionligini qoʻlga kiritdi. Shu yili oktyabrda Bahraynda ogʻir atletika boʻyicha Osiyo chempionatida Oʻzbekiston sportchilari 2 ta oltin va 4 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida beshinchi oʻrinni egalladi.

2022-yil avgust oyida Nur-Sultonda (Qozogʻiston) dzyudo boʻyicha oʻtkazilgan Osiyo chempionati yakunlariga koʻra, Oʻzbekiston terma jamoasi vakillari 9 ta – 1 ta oltin, 2 ta kumush va 6 ta bronza medalini qoʻlga kiritdi va umumjamoa hisobida uchinchi oʻrinni egalladi.

2022-yil 6-13-oktyabr kunlari Toshkent shahridagi Humo Arena majmuasida oʻtkazilgan dzyudo boʻyicha jahon chempionatida erkaklar oʻrtasida - 90 kg vazn toifasida Davlat Bobonov yurtimiz hisobiga ilk oltin medalni taqdim etdi. -100 kg vazn toifasidagi final yakunidagi hal qiluvchi bellashuvda oʻzbekistonlik Muzaffarbek Toʻraboyev kanadalik Kayl Reyyesni magʻlub etib, Oʻzbekiston hisobiga ikkinchi oltin medalni taqdim etdi. U vazari usulini ishlatib, raqibidan ustun keldi. Shu tariqa, jahon chempionatida Oʻzbekistonning oltin medallari soni ikkitaga yetdi. Qoʻlga kiritgan oltin medallar evaziga Oʻzbekiston ilk bor jahon chempionatining yakkalik bellashuvlarida umumjamoa hisobida uchinchi oʻrinni egalladi.

2022-yil 27 iyun kuni Janubiy Koreyaning Chunchon shahrida taekvondo boʻyicha XXV Osiyo chempionati yakuniga yetdi. Oʻzbekiston taekvondo terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi va jami 4 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalini qoʻlga kiritdi. Ulugʻbek Rashidov, Jasur Jaysunov, Nikita Rafalovich va Shuhrat Saloyev barcha raqiblarini magʻlub etib, Osiyo chempioni degan nomga sazovor boʻlishdi va terma jamoa hisobiga 4 ta oltin medalni olib keldi. *Charos Qayumova* taekvondo sport turi boʻyicha ayollar oʻrtasidagi jahon reytingida birinchi oʻrinni egallagan ilk oʻzbekistonlik sportchiga aylandi.

2022-yil aprelda BAAda oʻtgan qilichbozlik boʻyicha oʻsmirlar va yoshlar oʻrtasidagi jahon chempionatining ikkinchi kuni sportimiz uchun tarixiy sanaga aylandi. Oʻzbekistonlik qilichboz Zuhridin Qodirov gʻalaba qozonib, Oʻzbekiston tarixida jahon chempionligini qoʻlga kiritgan ilk qilichboz boʻldi. May oyida esa Gretsiyaning Iraklion shahrida ogʻir atletika boʻyicha yoshlar oʻrtasidagi jahon chempionati boʻlib oʻtdi. Qizlar oʻrtasida -87 kg vazn toifasida Tursunoy Jabborova dast koʻtarish va siltab koʻtarish mashqida jahon chempionligini qoʻlga kiritdi.

2022-yilda Oksana Chusovitina Misr poytaxti Qohirada oʻtkazilgan sport gimnastikasi boʻyicha jahon kubogida kumush medalni, Qatar poytaxti Dohada oʻtgan jahon kubogida esa oltin medalni qoʻlga kiritdi. 2023-yilning mart oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida boʻlib oʻtgan sport gimnastikasi boʻyicha jahon kubogi bosqichida Oksana Chusovitina shohsupaning eng yuqori pogʻonasiga koʻtarildi. U tayanib sakrash dasturida kumush medalni qoʻlga kiritdi.

2023-yil bahorida Xitoyning Usi shahrida taekvondo WT bo'yicha "Katta dubulg'a" musobaqasida O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Tokio olimpiadasi chempioni Ulug'bek Rashitov va Jasur Jaysunov turnir g'olibiga aylandi, Svetlana Osipovada esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

2023-yil aprel oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha U-18 va U-23, shuningdek, parakanoe bo'yicha Osiyo chempionatida Qit'aning 11 davlatidan kelgan sportchilar o'rtasida O'zbekiston terma jamoasi 18 yoshgacha va 23 yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasida 26 ta oltin, 12 ta kumush va 10 ta bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Paralimpiya terma jamoasi 4 ta oltin, 7 ta kumush va 4 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida uchinchi o'rinni qayd etdi.

2023-yil 23-sentabr–8-oktabr kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX Osiyo o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasi 38 ta sport turi bo'yicha 370 nafardan ziyod sportchi bilan ishtirok etib, 32 ta olimpiya, 6 ta noolimpiya sport turlaridagi qit'a o'yinlari medallari uchun kurash olib bordi va O'zbekiston terma jamoasi jami 71 ta medalni qo'lga kiritdi. Terma jamoa 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza medali bilan 45 ga yaqin davlat orasida beshinchi o'rinni egalladi. Mazkur sport musobaqasida o'zbekistonlik qilichboz qizlar ilk marta oltin medalga ega chiqdi.

Shu tariqa xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan turli nufuzli sport musobaqalarida o'zbekistonlik sportchilar faol ishtirok etib, ularda erishilayotgan natijalar esa yildan-yilga oshib bormoqda. Sportchilarimiz xalqaro sport maydonlarida g'alabalarni qo'lga kiritib, davlatimiz bayrog'ining baland ko'tarilishiga, mamlakatimiz nufuzining yanada oshishiga yuksak hissalarini qo'shishda davom etmoqdalar.

Savollar:

1. 2023-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining shahar joylarida nechta sport-ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda?
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilingan?
3. 2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?
4. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadi nimaga bag'ishlangan?

6. Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi qachon tasdiqlandi?

7. O'zbekistonda sportning qaysi turlari yoshlar orasida tobora ommalashmoqda?

8. 1991-2023-yillar davomida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini qaysi asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin?

9. O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning qaysi turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etildi?

10. Qaysi yildan boshlab yoshlar o'rtasida uch bosqichli sport musobaqalari muntazam o'tkazib kelinmoqda?

11. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirganlar uchun qanday nishonlar ta'sis etilgan?

12. 2015-yilda Xorazmdagi "Umid nihollari" musobaqalari nechta sport turi bo'yicha o'tkazildi?

13. 2012-2013-yillar davomida O'zbekistonda ayol murabbiylar soni qanchani tashkil etgan?

14. O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida qanday sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda?

15. O'zbekistonda sportning futbol turini rivojlantirish bo'yicha qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?

16. Ravshan Ermatov qanday davlat mukofotlari bilan taqdirlangan?

17. O'zbekiston prezidenti kubogi uchun Toshkent shahrida qaysi yillarda va necha marotaba xalqaro tennis musobaqalari o'tkazilgan?

18. Qachon va qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatga ko'ra maxsus "Sport" telekanali tashkil etildi?

19. Ayni paytda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasi qaysi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan boshqarilmoqda?

20. O'zbek kurashi bo'yicha 2-jahon chempionati qachon va qayerda bo'lib o'tdi?

21. O'zbek kurashi qachondan boshlab Osiyo o'yinlari dasturiga rasman kiritilgan?

22. 2022-yildan boshlab yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalari qanday bosqichlarda o'tkazilmoqda?

23. Professional boksda birinchi jahon chempioni bo'lgan o'zbekistonlik sportchi kim?

24. Ayollar o'rtasida birinchi jahon chempioni bo'lgan o'zbekistonlik bokschi kim?

25. O'zbekistonlik sportchilar qaysi Osiyo o'yinlarida eng yaxshi natijaga erishgan?

27. FIDE xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo'lgan birinchi o'zbekistonlik shaxmatchi ayol kim?

28. 2022-yilda FIDE reytingida kuchli 30 talikdan joy olgan shaxmatchi kim?

29. Taekvondo sport turi bo'yicha ayollar o'rtasidagi jahon reytingida birinchi o'rinni egallagan ilk o'zbekistonlik sportchi kim?

30. 2022-yil Gretsiyada og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida qizlar o'rtasida dast ko'tarish va siltab ko'tarish mashqida jahon chempionligini qo'lga kiritgan sportchi kim?

XULOSA

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik hamda vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning rolini oshirish, bu boradagi mavjud moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyatini jahon standartlari asosida yanada mustahkamlash, eng muhimi, sportga mehr har bir bola, har qaysi oila hayotiga chuqur kirib borishiga erishish eng muhim vazifa bo'lib qolaveradi. Shu bois respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar va dasturlar doirasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jismoniy tarbiya va ommaviy sportning jamiyatimiz hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitni yaratish orqali ularni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish, qolaversa, nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilarimiz saflarini tobora kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi bizning kelgusi faoliyatimizda eng muhim masala bo'lib qoladi. O'zbekistonda yashayotgan har bir o'gil-qiz davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va amaliy g'amxo'rligidan chetda qolmaydi". Jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish, oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ayniqsa, yoshlar salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishimiz hayotiy zaruratdir. Sababi yoshlar sog'lom va baxtli bo'lsa, ular quradigan oila ham, uning mevasi bo'lmish bola ham sog'lom hamda baxtli bo'ladi. Oila sog'lom va baxtli bo'lsa, butun jamiyat baxtli hamda farovon yashaydi. Shunday ekan, bu boradagi sa'y-harakatlarimizni yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz, jismoniy tarbiya va sport rivojiga ustuvor ahamiyat qaratishimiz maqsadga muvofiqdir.

Yurtimizda o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida tobora ommalashib borayotgan, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan navqiron o'g'il-qizlarimiz uchun chinakam chiniqish va mahorat maktabiga, katta hayot yo'liga parvoz maydonchasiga aylanib ulgurgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", Universiada sport musobaqalarini o'zida mujassamlagan uch bosqichdan iborat yaxlit tizim yaratildi. Mazkur tizim orqali bugungi kunda nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilar yetishib chiqmoqda. Eng muhimi, ushbu musobaqalar yoshlarimizni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

GLOSSARIY

Jismoniy reabilitatsiya – odam organizmining buzilgan yoki vaqtincha yo‘qotilgan funksiyalarini hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarini jismoniy tarbiya va sport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensatsiya qilish);

Jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi;

Jismoniy tarbiyalash – yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi – o‘z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o‘tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o‘tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta‘minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish inshooti – ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, o‘ziga qo‘yiladigan norma va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq tipdagi inshoot;

Ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari – aholini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga jalb etishga va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

Ommaviy sport – sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashg‘ulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etishga doir qismi;

Professional sport – sportning sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishga doir qismi bo‘lib, sportchilar ularda o‘zining asosiy faoliyati sifatida ishtirok etganligi va ularga tayyorgarlik ko‘rganligi uchun mukofot va (yoki) ish haqi oladi;

Sport – odamlarning muayyan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo‘lgan havaskorlik

asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

Sportchi – tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs;

Sport bo'yicha agent –sportchi nomidan va uning manfaatlari uchun shartnoma asosida faoliyat ko'rsatadigan, tuzilgan shartnomalar shartlariga va sportchining huquqlariga rioya etilishini kuzatib boradigan shaxs;

Sport musobaqasi – sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport dissiplinalari) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan bellashuv;

Sport inshooti – sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari va o'quv-mashq yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, o'ziga qo'yiladigan norma va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot;

Sportchining sport diskvalifikatsiyasi – sport turi qoidalarini yoki sport musobaqalari to'g'risidagi nizomlarni (reglamentlarni) yoxud xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan dopingga qarshi qoidalarini yoki respublika sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan normalarni buzganlik uchun sportchini sport musobaqalarida ishtirok etishdan sportning tegishli turi bo'yicha xalqaro sport federatsiyasi (uyushmasi) yoki sportning tegishli turi bo'yicha respublika sport federatsiyasi (uyushmasi) tomonidan amalga oshiriladigan chetlashtirish;

Sport turining tarmog'i (dissiplinasi) – farqlovchi belgilarga ega bo'lgan hamda bitta yoki bir nechta sport musobaqalari dasturlari turlarini o'z ichiga oladigan sport turining qismi;

Sport tadbirlari – sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar;

Sport turi – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo'lib, u insonning sport musobaqalariga o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'rish bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo'ladi;

Sport federatsiyasi (uyushmasi) – bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek sport tadbirlarini o‘tkazishni tashkil etish hamda sportchilarni – O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a‘zolarini sportning tegishli turi bo‘yicha tayyorlash uchun a‘zolik asosida tashkil etilgan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

Sport hakami – sport turi qoidalariga hamda sport musobaqasi to‘g‘risidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini ta‘minlash uchun jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi tomonidan vakolat berilgan, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va tegishli malaka toifasini olgan jismoniy shaxs;

Sportning texnik va amaliy turlari – sport natijalariga erishish uchun sportchi tomonidan umumiy jismoniy mashqlar majmuasidan tashqari, sport texnikasidan, moslamalaridan yoki texnikaviy vositalardan foydalana bilish va ularni boshqarish sohasidagi ko‘nikmalar va mahorat qo‘llaniladigan, shuningdek har xil sport turlaridan olingan, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mashqlar birikmasidan foydalaniladigan sport turlari. Sportning texnik va amaliy turlari yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismidir;

Trener – trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun malaka sertifikatiga ega bo‘lgan hamda o‘quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari – milliy ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga ega bo‘lgan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida rivojlanayotgan sport va o‘yin turlari;

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari – xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish uchun turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislar jamoalari;

Havaskorlik sporti – sportning aholini ixtiyoriylik asosida ommaviy sportga jalb qilish orqali odamlar sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan qismi;

Sportning harbiy-amaliy turlari – asosi harbiy xizmatchilar hamda maxsus xizmatni o‘tayotgan shaxslar tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq maxsus harakatlardan (shu jumladan usullardan) iborat bo‘lgan sport turlari.

Mavzuga oid muhim voqealar xronologiyasi

1992-yil 14-yanvar – O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

1994-yil – O‘zbekistonlik futbolchilar Xirosimida Osiyo o‘yinlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritishdi. Bu hozircha o‘zbek futboli tarixidagi eng katta yutuq hisoblanadi.

1996-yil – Toshkentda “Olimpiya shon-shuxrati” muzeyi ochildi. Muzeyning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining o‘sha paytdagi prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishgan.

1996-yil – jahon va o‘zbek sporti rivojiga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining oltin medali taqdim etildi.

1997-2002 yillar – Toshkent sovrin jamg‘armasi 500 ming AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan tennis bo‘yicha nufuzli turnir – “Prezident kubogi” musobaqasiga mezbonlik qildi. Ushbu musobaqalarda o‘sha paytdagi dunyoning yetakchi tennischilari tashrif buyurishgan.

1998-yil – Toshkentda milliy sportimiz bo‘lgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi tashkil qilindi. Oradan bir yil o‘tib esa poytaxtimiz kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionatiga mezbonlik qildi.

1999-yil – o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish va ularning salomatligini mustahkamlash maqsadida maxsus test sinovlari ishlab chiqildi.

2000-yil 26-may – O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning ikkinchi tahriri qabul qilindi.

2000-yil – mamlakatimizda uch bo‘g‘inli – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o‘yinlariga asos solindi. Ta’kidlab o‘tish lozimki, bunday turdagi musobaqalar dunyoning kamdan-kam mamlakatlarida o‘tkaziladi. Mana shundan ham yurtimizda bolalar va yoshlar sportiga e’tibor qay darajada ekanligini bilib olsak bo‘ladi.

2002-yil – “O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi” tashkil etildi.

2003-yilda 4-noyabr – Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy sport targ‘ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 484-sonli qarori qabul qilinib, unga binoan O‘zbekiston televideniyesida maxsus **“Sport”** telekanali tashkil etildi.

2004-yil – Rustam Qosimjonov Liviyada bo‘lib o‘tgan shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

2007-yil 14-aprel – bokschimiz Ruslan Chagaev Germaniyaning “Porsche-Arena” boks saroyida rossiyalik Nikolay Valuevni magʻlub etdi va WBA chempionlik kamarini qoʻlga kiritdi.

2011-yil – futbol boʻyicha Oʻzbekiston oʻsmirlar terma jamoasi Meksikada boʻlib oʻtgan jahon chempionatida chorak finalgacha etib borib, dunyoning eng kuchli 8 ta terma jamoasi qatoriga kirishga muvaffaq boʻldi.

2011-yil – Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi Ravshan Ermatovni “Dunyoning eng yaxshi hakami” sifatida tan oldi.

2012-yilning oktyabr – futbol boʻyicha Oʻzbekiston oʻsmirlar terma jamoasi Eronda boʻlib oʻtgan Osiyo chempionatida finalda Yaponiya terma jamoasini magʻlub etgan holda qita chempionligini qoʻlga kiritishdi.

2012-yil – Toshkentda dunyo standartlariga toʻliq javob bera oladigan “Bunyodkor” stadioni foydalanishga topshirildi. Osiyoda eng chiroyli va koʻrkam stadionlardan biri hisoblanadigan ushbu inshoot oʻz bagʻriga 35 000 dan ortiq muxlisni oʻz bagʻriga sigʻdira oladi.

2013-yil – yosh sportchi Nafisa Moʻminova FIDE xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor boʻlgan birinchi oʻzbekistonlik shaxmatchi ayol boʻldi.

2014-yil – toʻqqiz yoshli Javohir Sindarov Braziliyada shaxmat boʻyicha jahon chempioni boʻldi.

2015-yil 4-sentyabr – Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida”gi Qonunining yangi tahriri qabul qilindi.

2015-yil – Oʻzbekistonda xokkey oʻyini tiklandi. “Binokor” jamoasi qayta tashkil qilinib, qoʻshni mamlakatlarda boʻlib oʻtadigan xalqaro turnirlarda ishtirok etishni boshladi. Oradan bir yil oʻtib esa, mustaqil Oʻzbekistonda ilk marotaba xokkey boʻyicha xalqaro oʻyin tashkil etildi.

2016-yilning fevral – futzal terma jamoamiz Toshkentda boʻlib oʻtgan Osiyo chempionatining finaligacha yetib bordi va shu yili oʻzbek futzali tarixida ilk marotaba jahon chempionatiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

2017-yil – oʻzbek kurashining 2018-yili Indoneziyada boʻlib oʻtgan XVIII Osiyo oʻyinlari dasturiga rasman kiritilganligi maʼlum qilindi.

2017-yil 23-aprel – Oʻzbekiston tarixida birinchi marta maxsus ixtisoslashtirilgan futbol telekanali – “Futbol TV” ishga tushirildi.

2019-yil 15-mart – Toshkentda yangi qad rostlagan “Humo Arena” muz saroyining ochilish marosimi boʻlib oʻtdi. Tantanali tadbirda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq soʻzladi.

2019-yil noyabr – Samarqand shahrida ilk marotaba yarim marafon boʻlib oʻtkazildi.

2019-yil dekabr – Toshkent viloyati qorli yonbag‘irlarida ham mahalliy aholi, ham sayyohlar chang‘ida uchishlari mumkin bo‘lgan jahon darajasidagi *Amirsoy tog‘*-chang‘i kurorti ochildi.

2021-yil aprel – Polshaning Kelse shahrida boks bo‘yicha yoshlar o‘rtasida jahon chempionatining qizlar orasidagi final janglarida o‘zbekistonlik Nigina O‘ktamova o‘zbek bokschi qizlari orasida jahon chempionligini qo‘lga kiritgan ilk sportchiga aylandi.


2022-yil avgust – Hindistonning Chennay shahrida bo‘lib o‘tgan 44-Butunjahon shaxmat Olimpiadasida O‘zbekiston birorta ham mag‘lubiyatga uchramagan yagona jamoa bo‘lib, 188 jamoa ishtirok etgan Olimpiada chempioniga aylangandi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi O'RQ-394-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida" 2002-yil 24-oktabrdagi PF-3154-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 13-fevraldagi 118-son Qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
9. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. 21-jild. - T.: O'zbekiston, 2013.
11. Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, O'zbekistonim. O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2014.
12. Axmatov M.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish / Monografiya. – T., 2005.
13. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. – T., 2013.
14. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2015.
15. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. – T.: Sharq, 2008.
16. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Sharq, 2002.
17. Shakirjanova K.T. Jismoniy tarbiya va sportdagi uzluksiz ta'limni tashkil qilish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'zDJTI, 2012.
18. Shakirjanova K.T. Jahon bo'ylab bir ovoz yangrar – O, sport! // Ministerstvo visshego i srednego spetsialnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. "Fizicheskaya kultura i sport v formirovanii zdorovogo obraza jizni". Sbornik nauchnix trudov. – T.: TGEU, 2014.
19. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
20. www.minsport.uz – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi rasmiy veb-sayti.
21. www.olympic.uz – O'zbekiston Milliy olimpia qo'mitasi rasmiy veb-sayti.

ILOVALAR


2021-yil 1-yanvar holatiga 352 ta sport-ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan.




O'zbekistonda yoshlarning uch bosqichli sport musobaqalari

«Umid nihollari»		«Barkamol avlod»		«Universiada»	
				2000	Namangan
		2001	Jizzax		
2002	Farg'ona			2002	Buxoro
2003	Urganch	2003	Andijon		
				2004	Samarqand
		2005	Toshkent		
2006	Qarshi				
				2007	Toshkent
		2008	Nukus		
2009	Guliston				
				2010	Andijon
		2011	Termiz		
2012	Termiz				
				2013	Buxoro
		2014	Farg'ona		
2015	Xorazm			2016	Farg'ona
		2017	Jizzax		

2017-yilda sport inshootlari soni, birlikda




2017-yilda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi qizlar va bolalar



2017-yilda hududlar bo'yicha jismoniy tarbiya va sport klublari soni, birlik

	Jami	oily ta'lim muassasalarida	mehnat jamoalarida	boshqa muassasalarda
O'zbekiston Respublikasi	78	49	11	18
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7	2	5	-
viloyatlar:				
Andijon	2	-	-	2
Buxoro	3	3	-	-
Jizzax	7	2	5	-
Qashqadaryo	3	3	-	-
Navoiy	-	-	-	-
Namangan	2	2	-	-
Samarqand	20	7	-	13
Surxondaryo	-	-	-	-
Sirdaryo	2	-	1	1
Toshkent	1	-	-	1
Farg'ona	-	-	-	-
Xorazm	1	-	-	1
Toshkent sh.	30	30	-	-

2017-yilda jismoniy tarbiya jamoalari soni, %




2017-yilda sport seksiyasi va bo'limlarida darsdan va ishdan tashqari sport bilan shug'ullanayotganlar soni, ming kishi




O'zbekiston sportchilari 1991-2014 yillarda yirik xalqaro musobaqalarda olgan medallari to'g'risida ma'lumot

Yillar	Medallar turi			Jami
	oltin	kumush	bronza	
1991 - 1999	641	615	753	2009
2000 - 2014	2233	2294	2718	7245
Jami	2874	2909	3471	9254

2017-yilda hududlar bo'yicha "Alpomish" va "Barchinoy" testlari topshirganlar soni




2017-yilda hududlar bo'yicha sog'lomlashtirish yo'nalishlaridagi guruhlarda shug'ullanadiganlar soni, ming kishi




2017-yilda seksiya va sport maktablari ishining asosiy ko'rsatkichlari

	Guruxlar (seksiyalar) soni, ming birlik	Shug'ullan uvchi lar soni, ming kishi	ulardan ayollar	BO'SM, JTJ, JSKda shug'ullanu vchi o'quvchilar
O'zbekiston Respublikasi	120,7	2624,3	1031,9	372,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,4	145,0	53,5	31,6
viloyatlar:				
Andijon	9,6	325,8	141,3	33,8
Buxoro	6,8	134,6	45,6	38,2
Jizzax	5,4	145,0	53,5	31,6
Qashqadaryo	9,1	262,2	97,9	17,2
Navoiy	4,9	89,2	34,8	26,9
Namangan	8,8	204,2	81,8	28,1
Samarqand	12,8	161,0	64,9	30,6
Surxondaryo	8,9	243,5	101,2	14,4
Sirdaryo	2,2	57,8	19,5	16,4
Toshkent	8,0	143,9	51,1	22,2
Farg'ona	19,9	363,7	162,4	36,7
Xorazm	13,1	211,4	79,4	24,4
Toshkent sh.	5,8	136,8	45,0	20,0

2017-yilda guruhlar (seksiyalar)da olimpiya sport turlari bilan shugʻullanuvchilar, %




2017- yilda guruhlar (seksiyalar)da milliy sport turlari bilan shugʻullanuvchilar, %



2017-yilda guruhlar (seksiyalar)da boshqa sport turlari bilan shugʻullanuvchilar, %



**2017-yilda tayyorlangan sportchi-razryadchilar va murabbiylar soni,
kishi**



Turdimuratov Y.A. – O‘zDJTSU “Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA
JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

USLUBIY QO‘LLANMA

Bosishga ruxsat etildi 27.06.23. Terishga berildi 7.11.2023.
Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset bosma.
Ofset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı 2,8. Hisob nashr varag‘ı 3,3.
Adadı 50 nusxa.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
111709 Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.